

Gulsara KURBONOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.d (DSc)

E-mail: gulsara.qurbonovna@mail.com

Tel: 99 482 48 30

Dilnoza TURSUNMURATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: dilnoza.turamuratovna@mail.com

Tel: +998 97 170 05 68

O'zMU professori, f.f.d. Mamatov A.E. taqrizi asosida

FRANSUZ YOZUVCHILARI ASARLARIDA SHARQ MOTIVINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Аннотация

Mazkur maqola fransuz ma'rifatparvarligi ilk namoyandalaridan biri Sharl Lui Monteskyening "Fors nomalari"da Forsiy nigohi ikki tomonlama harakatni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni fransuzlarda kechgan real voqelik aksi o'ziga xos tarzda forslarda ham takrorlanishi asar mazmunining chuqur falsafiy mazmuni asosida o'rganiladi. Maqolada Monteskyening Forsiy nigohi insonning yashab turgan siyosiy tuzumiga va, aksincha, jamiyatning insonga munosabatini masofadan kuzatishi masal janri, markazdan uzoqlashgan kuzatish, personaj nigohi, yumorga boy tanqiiy qarashlar orqali tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Forsiy nigohi, personaj nigohi, fransuz ma'rifatchiligi, dunyo va inson, ruh va qalb, tarjima tili, asliyat matni, stilistik figura.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОСТОЧНОГО МОТИВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ФРАНЦУЗСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье исследуется глубокое философское содержание «Персидских писем» Шарля Луи Монтескье, одного из первых представителей французского просвещения в котором персидский взгляд допускает двусторонний подход, а это означает, что отражение реалий французов своеобразно повторяется в персах. В статье персидский взгляд Монтескье на политический строй, в котором живет человек, и, наоборот, дистанционное наблюдение за отношением общества к человеку анализируется через жанр притчи, децентрализованного наблюдения, характерного взгляда, юмористических критических воззрений.

Ключевые слова: Персидский взгляд, характерный взгляд, французское просвещение, мир и человек, дух и душа, язык перевода, оригинальный текст, стилистическая фигура.

ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE ORIENTAL MOTIF IN THE WORKS OF FRENCH WRITERS

Annotation

This article explores the deep philosophical content of the "Persian Letters" by Charles Louis Montesquieu, one of the first representatives of the French Enlightenment, in which the Persian view allows a two-sided approach, which means that the reflection of the realities of the French is uniquely repeated in the Persians. The article Montesquieu's Persian view of the political system in which a person lives, and vice versa, remote observation of society's attitude towards a person is analyzed through the genre of a parable, decentralized observation, characteristic view, humorous critical views.

Key words: Persian view, characteristic view, French enlightenment, world and man, spirit and soul, language of translation, original text, stylistic figure.

Kirish. G'arb adabiyotida sharq obrazi atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, yevropaliklar nuqtai nazaridan sharq obrazining yangi qirralarini talqin qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz sharqshunosi E.Saidning so'zlariga ko'ra, sharqni sharqliklar nuqtai nazaridan tadqiq etish shu millat madaniyatiga bo'lgan munosabatni ifodalashi bilan diqqatga sazovordir[5].

Fransuz ma'rifatparvarligi ilk namoyandalaridan biri Sharl Lui Monteskyening "Fors nomalari" (1721) asari inson ichki energiyasini, ruhi va qalbini harakatga keltiruvchi "dunyo va inson" haqida hamda unda o'zining ishtiroki xususida beixtiyor mushohada etishga chorlashi bilan o'z zamonasi va bugungi jamiyatimiz uchun ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jan Jak Russo "Tengsizlikning kelib chiqishi haqidagi mulohazalar nomli nutqida "vahshiyona" jamiyatlar to'g'risida fikr yuritadi"[6]. Bunday mulohazalar faylasuf uchun shu singari jamiyat modeliga taqlidan mushohada yuritish uchun emas, balki ayni damda g'arb jamiyatining axloqiy tanazzuli haqida o'ylab ko'rishga imkon berishini anglatadi. Gegel falsafasiga ko'ra, insonning o'zini chetdan kuzatishi "o'zligini anglash" demakdir. Hayotning falsafiy qoidalari oqimida yashayotgan inson, ayniqsa, Monteskye "Fors nomalari" asaridagi personajlariga "Qanday qilib o'zligini tushunishiga imkon beradi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Uning asarini o'qigan o'quvchida "yot" va "men" tushunchalari orqali qarama-qarshilik munosabatlari shakllanishi o'quvchini olis masofadan turib hayot, jamiyat haqida beixtiyor fikrlashga undaydi. Masofadan kuzatish, birinchi navbatda, Forsiyning qarashlari, O'zbek va Rikaning do'stlariga Yevropaga qilgan sayohatlari xususida gapirib berayotib, jamiyatda kechadigan voqealarga nisbatan munosabatini ifoda etishi bilan bog'liq. Adib o'quvchini asar suyujetida voqealarning o'zaro bog'lanishini e'tibordan qochirmaslikka undaydi. Bu bog'liqlik, birinchidan, O'zbekning haramida qolgan xotirlari va ularning qo'zg'aloni bilan, ikkinchidan Fransiya va Yevropa davlatlarida XVIII asrda ro'y bergan real voqealarga tanqidiy munosabat ifodalanishi bilan aloqador. Yozuvchi zamonaviy jamiyatni mukammallashtirish uchun o'z pozitsiyasi nuqtai nazaridan voqealar suyujeti orqali o'quvchini jamiyatga tanqidiy munosabatini o'ylab ko'rishga yengil yumor bilan yo'naltiradi. "Fors nomalari"da Forsiy nigohi ikki tomonlama harakatni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni fransuzlarda kechgan real voqelik aksi o'ziga xos tarzda forslarda ham takrorlanadi. Haqiqatan ham, makon va undagi madaniy farqlarga masofadan nigoh tashlash g'ayritabiiy tuyulsa-da, bu jarayon badiiy adabiyotda axloqiy va falsafiy maqsadni ko'zlaydi. Monteskye asarining o'ziga xosligi undagi real voqelikni sodda gap tuzilishli stilistik figuralar mubolag'a, epitet, parafrazlar orqali berilishi va so'z birikmalarining yashirin ma'nosi yo'qligi fikrni ochiq-oydin ifodalanishida namoyon bo'lsa, asar mazmunining chuqur falsafiy

mazmunga ega ekanligi uning murakkab g'oyaviy tuzilishida namoyon bo'ladi. XVIII asr g'arb ma'rifatchiligidan rivojlanish davri bo'ldiki, ularning faoliyati jamiyat rivojiga qo'shgan hissalarini bilan baholanadi. Monteskye (jadidlar kabi) g'arb va sharq xalqlarining hayotida ro'y berayotgan istibdod, zo'ravonlikni ilm-ma'rifat rivojlanishiga keng yo'l ochib berish orqali yengish mumkinligiga ishonadi. U chetdan begona yurt kishilari nigohi bilan millatni o'z-o'ziga nazar tashlashi, uning o'zidagi illatlarni tushunib yetishlariga imkon beradi, deb ishonadi.

Monteskyening Forsiy nigohida insonning yashab turgan siyosiy tuzumiga va, aksincha, jamiyatning insonga munosabatida, unda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini masofadan kuzatishi natijasi quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

1. Masal janridan foydalanish orqali. Masal janridan badiiy adabiyotda insonning ahvoli va zamonaviy voqeliklarga tanqidiy qarashdan axloqiy yoki falsafiy maqsadda foydalanish tez-tez uchrab turadi. Axloq-odob falsafasi yoritilgan masallar, jumladan, 11-, 12-, 13, 14-maktublarda sof insoniy vijdon falsafasi Arabistondagi trogloditlar masalida, 67-maktubda otashparastlik sof vijdonlilik ramzi sifatida talqin etilgan "Faridun va Astarta qissasi", 141-maktubda sitamkorlik falsafasi Ibrohim ismli o'ta rashkchi er va uning 12ta xotini haqidagi eronlik ayollarning haramdagi hayotlari aks ettirilgan qissa va qissadan hissa chiqarish usulini asarda qo'llash orqali insonga jamiyatda kechadigan hodisalarni chetdan turib, masofadan kuzatish imkonini beradi.

2. Markazdan uzoqlashgan kuzatish orqali. Asarda Forsiylarning hayrati, tushunarsiz holati, g'azabi yangi ko'rinish orqali namoyon bo'lishiga imkon beradi, chunki ular orasidagi makonda va madaniyatda o'zaro tafavuti kattaligi biz uchun juda oddiy bo'lib tuyuladi, shu bois badiiy obraz pozitsiyasiga tushganimizni buni chuqur his qilmaymiz va uning olamini beixtiyor o'zimiz yashayotgan dunyo bilan solishtiramiz. Boshqacha aytganda, bular bizning urf-odatlar va e'tiqodlar, ijtimoiy meyorlar, hukmronlik tuzumlariga qulligimizni anglab yetishimizga to'sqinlik qiladigan sezgirligimizning ta'sirini yo'qotish haqidadir, shuning uchun biz ularni his qilishimiz qiyinroq kechadi. Demak, nigohni markazdan ajratish ma'nosida uzoqlashtirish jamiyatimizni boshqaradigan qonunlar va sun'iyliklarni ochishga imkon beradi. Ijodkorning 99-maktubda tavsiflangan fransuz modasi haqidagi mashhur misolini olishimiz mumkin. Rikaning maktubi axloqqa oid oddiy satiraning yengil ohangidan boshlanadi: qahramon fransuz modasi, xususan, ayollar modasidagi o'zgarishlarning tezligidan hayratda qoladi. Yozuvchining siyosiy tuzumga xos salbiy qarashlari ham o'zgaruvchan Parij modalariga xos "hukmdorning qalbi qolip misol boshqa barcha qalblarni shakllantirib turadi" jumlasida ifodalangan metaforasi qiro'l qiyofasida jamiyatning shakllanishiga ishora qiladi.

3. Personaj nigohi orqali. Forsiyning ko'zgu nigohi kitobxonga zamonaviy voqelikni goh yaqindan, goh uzoqdan kuzatish imkonini beradi, unda fransuz monarxiyasining despotik moyilliklariga ochiq munosabat ifodalangani.

Forslar o'zlari uchun noma'lum haqiqatga duch kelishadi va uni Yevropani bilmagan do'stlariga tasvirlashda forsliklar va musulmon sivilizatsiyasi bilan o'xshashliklarni izlaydilar hamda o'z kuzatuvlari orqali fransuz urf-odatlarining ekzotik sabablarini izlashadi. 37-maktubda Fransiya qiroli va Fors sultoni o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlar aniq parallellikda ko'rsatilgan. Ushbu maktubda sharq va g'arb dialogi o'z davlatini yaxshi ko'rgan forsiy nigohidan tasvirlanadi, shuning uchun ham bu yerda monarxiyaning despotik moyilliklari namoyon bo'ladi. Maktub Fransiya qirolining keksaligi bilan ochilib, hokimiyatning qiro'l shaxsiy manfaatlari va qiziqishlari asosida qurilganligi, o'zboshimchalik kabi illatlar keksalikning injiqliklari bilan kuchayishi ta'kidlanadi. Despotizm elementlari qiro'lning ta'sirchan fe'l-atvori "18 yoshli vaziri, 80 yoshli mashuqasi", hokimiyat uchun tahdid "qo'shin boshiga yaxshi general qo'yishdan qo'rqishi" kabi satrlar tahlilida ochib beriladi. Kitobxonning forsiylarning uzoq nigohi prizmasidan kelib chiqadigan xulosasi, mutlaq monarxiyaga olib boradigan boshqaruvning mantiqsizligi, qirollikning davlat manfaatlariga, jamoat manfaatlariga be'e'tiborligi natijasidir.

4. Yumorga boy tanqidiy qarashlar orqali. Badiiy adabiyotning epistolyar janri bir necha qarashlarni o'z ichiga birlashtiradi, jumladan, "Fors nomalari" yumor nuqtai nazaridan tanqidiy qarashlarga ega. Asardagi nomalar sistemasi ko'pqirralilikka asoslangan, ya'ni sharq va g'arbn solishtirishda yozuvchi ba'zan uzoqdan betaraf nigoh bilan o'zga olamni, ba'zan yaqindan o'z dunyosini keskin tanqid ostiga oladi. Maktubda ikki forslik O'zbek va Rika Fransiyadan turib o'z do'stlari Nosir, Mirza, Rustan, Ibben, Redi, Nargum, haram og'alariga va O'zbekning haramidagi ayollariga xuddi shunday tanqidiy yumorga yo'g'rilgan maktublarining guvohi bo'lamiz. Ba'zi xatda yevropaliklarning sharqliklarga nisbatan nuqtai nazarlari ifoda etiladi, xususan, personajlarning yevropa va osiyoliklar haqidagi dialoglari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilganini va ko'plab tanqidiy mulohazalarga ega bo'lgan qator madaniy dialog modellari va dunyoqarashlarining guvohi bo'lamiz.

Chuqur mulohaza yuritayotgan O'zbekning haramda qolgan ayollariga nisbatan shafqatsiz yo'l tutishi ularning hurfikrliligiga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu xususda 21-maktub – qullariga yuborgan nomasida keltirilgan "maktubni ochganing hamon titramog'ing", "larzaga kelmog'ing kerak" degan so'zlari xo'jayinning g'azabini ko'rsatuvchi tahdid singari jaranglaydi. Keyingi abzatsda qo'llanilgan so'zning ma'nosi "Men – xo'jayin", "Sen–qulsan" ma'nosida despot hukumatning ekzotik oshirilishida uning xulq-atvori sharq istibdodiga parallel tasvirlanadi.

Biroq 16-maktubda O'zbekning uch qabr qo'riqchisi Mulla Muxammad Aliga yozgan xatida, aksincha, pozitsiyasi o'zgarib o'zini uning oldida naqadar o'jizligini, qalbi o'git-nasihatlarga muhtoj ekanligini tan oladi. U mulla Muhammad oldida xuddi qullari erkidan mahrum bo'lganidek, o'z qalbi va erkinligidan judoligini tan oladi: O'zbek din va uning namoyandalari foydasiga o'z aql-idroki va mulohazalaridan voz kechadi. Zero, uning o'zligidan begona bo'lishi uzoq davom etmaydi, keyingi maktublar mazmunidan hokimiyat va bo'ysunish o'rtasidagi aloqalarning murakkab sistemasi yuzaga kelganligi ma'lum bo'ladi. O'zbekning Yevropaga qilgan sayohati tufayli Yevropadagi illatlarni ko'proq tan oladi va o'z madaniyatining aqida ekanligiga ko'proq shubha bilan qaraydi, biroq o'zini haramida hukmronligi nuqtai nazaridan qaraganda mutlaq xo'jayinligini asoslay olmaydi. Asarni o'qigan kitobxonda shunday tushuncha paydo bo'ladi, muammo qancha yaqin bo'lsa, so'qirlik shuncha kuchli bo'ladi. Bu holatda fransuz va o'zbek kitobxonining haramdagi illatlardan o'zi uchun chiqarib oladigan sabog'i aniq: boshqalardan mamnun bo'lmaslik, "o'zligi"ga qaytishga imkon beradi.

Forslarning bema'nilik va nomuvofiqliklarni ta'kidlagan o'zgaruvchan nuqtai nazari, ba'zida jiddiy tanqid va shubhalarni keltirib chiqaradi (ko'pincha, O'zbekning maktublarida), ba'zida Rikaning yevropaliklarning bazmlari ruhi haqida bema'ni va nomuvofiq ekanligini jonli, satirik va istehzoli hikoyalari etimologik nuqtai nazaridan, dissimilyatsiya (o'zgarish) va shubhani anglatadi. Agar odam o'ylagan narsasining aksini aytsa, bu masxara qilishning bir shakli bo'lib, soxta soddalik va ishonchsizlikni ham o'z ichiga olishi mumkin. Badiiy kontekstda istehzo personajga (o'zini ishonuvchan qilib ko'rsatuvchi) va muallifga (qahramon haqiqatan ham ishonuvchan bo'lib, muallif o'zining ishonchligidan istehzo uchun foydalanadi) tegishli bo'lgan holatlarni farqlash kerak.

Bizning tahlilimiz manbai Monteskye va Amin Maaluf asarlari sharq madaniyatini falsafiy-badiiy matnda ifoda etishi bilan mushtaraklik kasb etadi. Fransiya XVIII asrda ma'rifatchilikning markaziga aylangan. Fransuz ma'rifatchilari jamiyat illatlarini ilm-ma'rifat orqali bartaraf etish mumkin, degan g'oyani ilgari surganlar. Mazkur ma'rifatparvarlik Fransiyada "Les lumières" termini bilan atalgan. Uning birinchi bosqichida Sh.L.Monteskye (1689–1755) faol ishtirok etgan. U o'zining 1712 yilda yozilgan "Fors nomalari"da ma'rifatchilik g'oyalarini mantiqiy aql-idrok va tabiiylikka yo'naltiradi. Monteskye nomi o'zining hokimiyat, qonunchilik, davlatchilik, madaniyat kabi masalalarga falsafiy qarashlarini ifoda etgan asarlari orqali fransuz akademiyasida ta'sis etilgan ensiklopediyaga kiritiladi. U aniq ifodalangan antiklerikal faoliyat, diniy aqidaparastlik va ikkiyuzlamachilikka, cherkov dogmatizmi va cherkovning davlat hamda jamiyatdan ustunligi bilan ajralib turishiga o'z asarlari orqali qarshi chiqadi.

Sharq atamasi Shimoliy Afrikadan Markaziy Osiyoga qadar cho'zilgan musulmon geomadaniy mintaqasini anglatsa, tarixiy matnlar ifodasiga ko'ra ushbu atama xristian diniga mansub sharqliklar va islom diniga mansub zardushtiylarni o'z ichiga oladi. Maaluf ijodini o'rganuvchi ba'zi bir g'arb tadqiqotchilari mazkur tushunchani ifodalash uchun Pan-Orient[4] terminini ham ishlatadi.

Amin Maaluf tarixiy asarlari mazmun-mohiyatiga o'ziga xos sharqona xususiyatlarni singdiradi. U asarida sharq tarixini yoritishga yo'naltirilgan voqelikning eng mayda tafsilotlariga xos rang-barang mazmunli jihatlarini tasvirlashdan tashqari sharq adabiyoti uchun an'anaviy bo'lgan motiv va syujetlardan ham ijodiy foydalanadi. O'ziga xos ijodkor sifatida Amin Maaluf tarixiy romanida sharq adabiy an'alarini davom ettiradi va ularni mazmun jihatdan o'ziga xos syujet asosida boyitish barobarida o'z ijodida sharq adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy va zamonaviy hikoyachilik strategiyalariga taqlid qiladi.

Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab..." asarida yaratgan Umar Xayyom obrazi sharq xalqlariga xos umumiy xususiyatlarni o'zida jamlagan umumlashma timsol sifatida gavdalanadi. Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda qolgan ziyoni izlab..." asari Abdumurod Ko'chiboyev tomonidan fransuz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga 2018 yilda tarjima qilingan. Ushbu tarjima asarning so'z boshisida "Amin Maalufning muazzam Samarqandga go'zal qasidasi", A.Saidov e'tiroficha, Umar Xayyom ruboiylarining o'zbek tiliga tarjimasi, mashhur sharqshunos olim Shoislom Shomuhamedov nomi bilan bog'liq [1]. U birinchilardan bo'lib Umar Xayyomning fors tilidagi 200 ta ruboysini yig'ib o'zbek va fors tillarida nashr qildirgan. Shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonda Umar Xayyom ruboiylari tarjimalari O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, adabiyotshunos olim va tarjimon Ergash Ochilov tomonidan ham amalga oshirilgan. Oldingi tarjimalar asliyatdan farqli barmoq vaznida yoki nasriy tarjimalar shaklida yaratilgan bo'lsa, bu tarjimalarning afzalligi asliyatga muvofiq aruz vaznida yaratilganligidadir[1] va 2001-2004 yillarda adib Nabi Jaloliddin uning hayotiga bag'ishlangan roman yozdi [3]. Ushbu asarda Umar Xayyom obrazi sharq xalqlari mentaliteti xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqib yoritilgani bois asar qahramoni ruboiylarining dunyoga kelishi ham asar voqeliklari bilan chambarchas bog'langan va, shubhasiz, ularning tarjimasi ham o'zbek tilida qayta yaratilgan, deb ayta olamiz.

Monteskyening "Fors nomalari"da yozuvchi o'zi yashagan davr illatlarini o'tkir qalam ostiga olgan bo'lsa, Amin Maaluf zamonaviy yozuvchi sifatida uzoq o'tmish – tarixga sayohat qiladi va IX-XI asr voqealarini XIX-XX asr bilan bog'liqlikda mahorat bilan ifodalay oladi. Ushbu yozuvchilarning asarlaridagi o'xshash jihatlar, birinchidan, sharq va g'arb dialogi, sharq madaniyati nuqtai nazaridan ochib berilganligi, ikkinchidan, ikkala asar ham kitobxonni chuqur mushohadaga undovchi "dunyo va inson", "borliq va zamon" falsafiy qarashlarini aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Ularning farqli jihatlari esa sharq madaniyatiga yozuvchi pozitsiyasida ko'zga tashlanadi. Bu Monteskyening Yevropa millatiga tegishli, xristian e'tiqodiga ega inson ekanligi bilan belgilansa, Amin Maaluf frankofon yozuvchi, livanlik, musulmon diniga mansubligi bilan bog'liq. Undan tashqari Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab..." asari voqealari, asosan, Samarqand va Eronda, qisman g'arbda sodir bo'ladi. Monteskyening "Fors nomalari"dagi voqealar Yevropa davlatlari, xususan, Fransiya sayohatga borgan Forsiyi nigohida talqin etiladi.

Ushbu asarlarda ifoda etilgan sharq va g'arb madaniy-falsafiy dialogida ifoda etilgan sharq obrazi tadqiqotimizning keyingi paragraflarida "johillik va insoniylik", "adolat va sitamkorlik", "hokimiyat va davlat" "ezgulik va yovuzlik", "mazlumlik va hurlik", "ma'rifatparvarlik va jaholat" kabi qarama-qarshi fikrlar sabab va oqibat falsafiy kategoriyalari orqali tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Умар Хайём. Рубоийлар: форс, ўзбек ва рус тилларида/форс тилидан Ш.Шомухамедов, рус тилидан Н.Стиржков таржималари. – Т: Радуга, 1985.
2. Умар Хайём. Тириклик тилсими/Таржимон, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Эргаш Очилов. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 191 б.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б.87.
4. Dakroub F. L'Orient d'Amin Maalouf. Berlin 2011. -P. 6.
5. Said E.W. Orientalism. Paris:1978. - P.55.
6. <https://philosophie.cegeptr.qc.ca/wp-content/documents/Discours-sur-lin%C3%A9galit%C3%A9-1754.pdf>.